

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.S.Turdiyev	
O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlili	182
B.E.Xusanov	
Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari	187
F.M.O'sarov	
Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari	190
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	193
Sh.Sh.Dadaxanov	
O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	201

SIYOSAT

J.Q.Yusubov	
Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi	206
B.Yalgashev	
“Siyosiy falsafa” va “Siyosat falsafasi” o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari.....	210
A.Xamdami	
Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati	214

TARIX

B.A.Usmonov	
Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar	219
A.H.Адъгезалов	
Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гууам	224
F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova	
To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni	231
A.H.Boltayev	
V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar	235
G'.R.Mirzayev	
Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligi	239
O.N.Nasirov	
Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	249
O.I.Rajabov	
Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar	253
П.Х.Исмоилова	
Деятельность отделения русско-азиатского банка в туркестане в конце XIX в начале XX века	257
H.S.Yusupov	
Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyning mudarrislik faoliyati	262
Sh.Y.Oxunjonova	
Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillar).....	265
A.R.Nurmatov, D.X.Boyyeddayev	
Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim.....	272
П.Х.Исмоилова	
Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки в XIX—XX веках.....	276
G.X.Xasanboyeva	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1950-1970 yillar).....	281

O'ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR IDORALARI FAOLIYATIDA XALQ MANFAATLARI TAMOYILINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY JIHATLARI**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРИНЦИПА УЧЕТА ИНТЕРЕСОВ НАРОДА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ УЗБЕКИСТАНА****SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF THE PRINCIPLE OF PEOPLE'S INTERESTS IN THE ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS AGENCIES IN UZBEKISTAN****Dadaxanov Shavkat Shakirovich¹**¹Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi**Annotasiya**

Mazkur maqola jamiyat barqarorligi va mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda "xalq manfaatlariga" xizmat qiluvchi tubdan yangi shakllanib borayotgan, O'zbekiston ichki ishlar idoralari faoliyatidagi muhim ijtimoiy o'zgarishlar tahliliga bag'ishlangan. Shuningdek, xalqaro va milliy qonunchilikda ichki ishlar idoralari faoliyatidagi muhim ijtimoiy o'zgarishlarning e'tirof etilishi, mazkur jarayon ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishga harakat qilingan. Olib borilgan nazariy tahlillar, amaliy faoliyatlarini ilmiy tadqiqotlar natijasida mavzu yuzasidan ayrim taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Аннотация

В данной статье была предпринята попытка раскрыть существенные социальные изменения в деятельности органов внутренних дел Узбекистана, которые принимают принципиально новую форму, служа "интересам народа" в обеспечении стабильности общества и развития страны. А также признание в международном и национальном законодательстве важности темы на сегодняшний день, целесообразно проанализировать данную проблему научно и философски. В результате проведенного теоретического анализа, научных исследований практической деятельности были разработаны некоторые предложения и рекомендации по теме.

Abstarct

In this article, an attempt was made to reveal the significant social changes in the activities of the internal affairs agencies of Uzbekistan, which are taking a fundamentally new form, serving the "interests of the people" in ensuring the stability of society and the development of the country. As well as the recognition in international and national legislation of the importance of the topic today, it is advisable to analyze this problem scientifically and philosophically. As a result of the theoretical analysis carried out, scientific studies of practical activities, some proposals and recommendations were developed on the topic.

Kalit so'zlar: barqarorlik, tinchlik, taraqqiyot, ijtimoiy faoliyat, profilaktika, insonparvarlik, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiylashuv, pragmatizm, fuqarolik jamiyati, demokratiya.

Ключевые слова: устойчивость, мир, прогресс, социальная деятельность, профилактика, гуманизм, социальные отношения, социализация, прагматизм, гражданское общество, демократия.

Key words: sustainability, peace, progress, Social Activities, Prevention, humanism, social relations, socialization, pragmatism, civil society, democracy.

KIRISH

Jahon mamlakatlarining ijtimoiy barqarorligi, jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda nafaqat davlat organlari yoki ijtimoiy institutlar, balki aynan ichki ishlar idoralari faoliyatidagi xalqparvar siyosatini olib borishi bilan ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi jarayoni natijasida jamiyatimiz ijtimoiy hayotining barqarorlashuvi hamda xavfsizligini ta'minlash maqsadida qator xalqaro hujjatlar qabul qilingandir, xususan, 2015-yil 25-sentyabrida BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida qabul qilingan "Barqaror taraqqiyot – 2030" dasturining 17 ta barqaror taraqqiyot maqsadlaridan (BTM) biri, tinchlik, adolat va samarali boshqaruv institutlarini rivojlantirish hisoblanadi [4.], bu esa albatta "xalq manfaatlariga" xizmat ko'rsatuvchi yangi ichki ishlar idoralarisiz amalga oshirib bo'lmashligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda nufuzli xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida inson huquqlarini himoya qilishda jamoat tashkilotlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning jamiyatimizdagi ijtimoiy barqarorligi va davlatimiz aholisining xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlarni olib borishmoqda. Zamonaviy raqamli jamiyatda kiber jinoyatlar salmog'ining oshishi, ijtimoiy tartib-intizom va aholining xavfsizlikni ta'minlashda jinoyatchilikni oldini olish, ya'ni profilaktika va qarshi kurash borasida milliy tadqiqot markazlari bilan bir qatorda

xalqaro tadqiqot markazlari, xususan Interpol singari xalqaro hamkorlik tuzilmalari bilan birgalikda qurol, narkotik moddalar, odam savdosi kabi ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilib bormoqda. Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq Interpol singari sohaga oid xalqaro tuzilmalar bilan yaqindan hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda, bunga "2018-yilning 18-21-noyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining delegatsiyasi Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tgan Interpol Bosh Assambleyasining 87-sessiyasida qatnashganliklarini misol sifatida keltirishimiz mumkin" [5.].

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, demokratik tamoyillarni yanada rivojlantirishda ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy madaniyatini oshirish, ularni ijtimoiylashuvlari, ya'ni "xalqparvar" – davlat fuqarolik xizmati, huquqni muhofaza qiluvchi idora sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni davom ettirib, yangi O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar "Inson manfaati - oliy qadriyat", "xalqning roziligi", "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" kabi demokratik tamoyillari har bir davlat xizmatchisi, xususan ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy faoliyatining me'yoriga aylantirish orqali, huquqiy-demokratik va ijtimoiy davlat qaror topishining bosh mezoni hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev davlat fuqarolik xizmati vakillarining jahon hamjamiyatiga keng qamrovli integratsiyasi natijasida munosib o'rinlarini egallashlari orqali har bir fuqaro, insonga munosib turmush shart-sharoiti havfsizligini ta'minlashlariga oid quyidagi fikrlarni ilgari surganliklarini ko'rishimiz mumkin: "...Biz xalqimizning ana shu orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ikkita masalaga, ya'ni ichki ishlar va sog'liqni saqlash tizimni isloh qilishga katta e'tibor qaratayapmiz" [1.].

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ustuvor yo'nalishlaridan biri, ya'ni "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" [2.], deb nomlangan bo'lib, unda jamiyatimiz a'zolarining ijtimoiy, iqtisodiy huquqlarining kafolati, rivojlanishimizning barqarorligi, davlat fuqarolik xizmati, aynan ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilini ta'minlash kontseptual ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishdagi inson manfaatlari "shaxs-jamiyat-davlat" tizimida oliy qadriyat sifatida ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlikni va jamoat xavfsizligini ta'minlash, profilaktika faoliyatida ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy ko'nikma va madaniyatining yanada yuksaltirish, ularda nafaqat davlat tomonidan o'rnatilgan huquqiy normalarga amal qilish, balki jamiyatimizda shakllangan odatlarni bilishi, ularni hurmat qilishi talab etiladi. Yuqoridagi tamoyillarga sodiq qolgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan qabul qilingan "Ichki ishlar xodimlarining kasbiy madaniyati va intizomi kodeksi" [3.] ham fuqarolarning siyosiy faolligining o'sishi, jamoat tartibiga daxl etuvchi munosabatlar ichki ishlar xodimlarining fuqarolik ishlarida siyosiy madaniyatini talab etmoqda. Bu hol ichki ishlar tizimi xodimlarning kasbiy-siyosiy professional talablariga bo'lgan talabni tadqiq etishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyatning taraqqiyoti va uning barqarorligini ta'minlashda ichki ishlar idoralari xodimlari(qadimda mos tuzilmalar)ning faoliyati, ularning "xalqparvar" tizimning bir bo'lagi haqidagi qarashlarni antik faylasuflardan Suqrot, Demokrit, Platon, Aristotel, Polibiy, Tsitseron, Konfutsiy, Lao Szilarni keltirishimiz mumkin. O'rta asr Sharq allomalaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Homid G'azzoliy, Ibn Xoldunlarning ilmiy meroslarini e'tirof etish lozim.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, jamiyatda barqarorlik, tinchlik, huquq-tartibotni ta'minlash, "xalqparvar davlat organlari" kontsepsiyasini ishlab chiqilishida dastlab quyidagi G'arb maktabi vakillari N.Makkiyavelli, J.Boden, F.Bekon, T.Gobbs, J.Lokk, Sh.Monteske, D.Didro, T.Djefferson A.Tyurgo, I.Kant, G.Gegel, A.Tokvil, D.Mill, K.Marks, F.Engels, F.Nisshe, M.Veber, V.Paretto, F.Tyonnis, E.Dyurgeym, E.Gusserl, O.Shpengler, L.Mizes va K.Yasperslarning ilmiy qarashlari katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda mazkur mavzu, ya'ni ichki ishlar idoralari faoliyatida "xalq manfaatlari tamoyillari"ni mustahkamlash kabi masalani yechimiga doir ilmiy tadqiqotlarda ularning jamoat tartibini saqlash, profilaktika va umuman davlat fuqarolik xizmati muammolari ham soha tadqiqotlarida o'z aksini topmoqda.

Muammoga oid turli nazariy va amaliy fikr-mulohazalar o'zbek olimlarimizdan M.Ziyodullayev, U.Do'stmurodov, I.Ismailov, Z.Zaripov, U.Rasulyev, K.Baratov, X.Odilqoriyev va boshqalar tomonidan tadqiq etilganligini aytish mumkin.

Mavzuimizga oid maxsus tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, respublikamizning suveren taraqqiyoti davrida ichki ishlar idoralari xodimlarining jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy

FALSAFA

transformatsiyalar natijasida, yangicha maqomni, ya'ni "xalqchil tuzilma"ni nazarda tutgan tub o'zgarishlar jarayonini va bu bilan bog'liq munosabatlar obyekt sifatida o'rganishga harakat qilingan. Yangi O'zbekistonda "xalqparvar" ichki ishlar idoralari tizimi, yuksak kasbiy ko'nikma, yuqori huquqiy madaniyatli xodimlar kontingentini tarkib toptirish mavzuimizning dolzarbligini izohlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Huquqiy davlat tarkib topishida huquq-tartibot, xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilikni profilaktikasi jarayonida ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy-professional madaniyatini amalga oshirishga qaratilgan yangi "xalqparvar" tizimni shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ijtimoiy omillarini ilmiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishni o'z oldimizga maqsad qilganmiz. Ichki ishlar idoralari xodimlari umumkasbiy madaniyatining oshirishlarida huquqiy normalari va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali jamiyatimizdagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq aksologik, proksiologik hamda legitimlik jihatlari ochib berish orqali erishish mumkinligi tahlil qilingan.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyatida jamiyat huquq-tartiboti, xavfsizligini ta'minlashda, jinoyatchilik profilaktikasini, ularning shaxsiy kommunikativliklari, ochiqligi, kompetentligi, professionalligi jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlarning metodologik asoslarini ishlab chiqishda foydalanish talab etiladi. O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmati, xususan huquqni muhofaza qilish organlari tizimidagi ichki ishlar idoralari xodimlarining samaradorligi, ularning fuqarolarimiz orasida huquqbuzarlikni minimallashtirish, jinoyatchilikni oldini olishda huquqiy savodxonlikni oshirish, bular fuqarolar huquqiy madaniyatini o'sishi, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni jadallashtirish bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqadorligi asoslangan.

Ichki ishlar idoralari bo'limlari shaxsiy tarkibining kasbiy-professional tayyorgarligini izchil oshirib borishi, ularning jamiyatdagi "ijtimoiy sherikchilik" zanjirining bir bo'lagi ekanligi va "xalqparvar" tamoyiliga tayangan holda "xalq davlat idoralari uchun emas, balki davlat idoralari xalq uchun" asnosida o'z faoliyatlarini tashkil qilishlari lozimligi, soha vakillarida axloqiy qadriyalar va huquqiy madaniyat mustahkamlash borasida kasbiy-professional talablarni qayta shakllantirishni tadqiqotimiz natijalaridan taklif sifatida ishlab chiqildi. Bu o'z navbatida, ichki ishlar idoralari xodimlarining "ma'naviy qiyofasini aholi o'rtasida ularni jazolovchi-salbiy obrazda emas, balki himoyachi-ijobiy obrazda" namoyish bo'lishlariga asos bo'ladi. Ularning xulq-atvori, kasbiy madaniyati, jamoatchilikda pozitiv munosabatni shakllantirish, xodimlarning kunlik faoliyatlarida fuqarolar bilan hushmuomalada bo'lish, jinoyatchilik profilaktikasi va oldini olish choralari ko'rish orqali namoyon bo'ladi. Bunda ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy-professional madaniyatini oshirishda barchalari o'z faoliyatida mazkur profilaktik tadbirlarni "xodimbay-fuqarobay" formatida tashkil etishlari talab etiladi. Ta'kidlash kerakki, jamoatchilik tartibini saqlash, jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi samarali kurashishda xodimlar tomonidan aholi orasida "qizil toifa-jinoyatchilikka moyillarni" ajratib olish orqali, ular bilan tizimli huquqbuzarlikni oldini olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish talab etiladi. Ayniqsa jamiyatimizning asosiy bog'inlaridan hisoblanmish mahallada fuqarolar tinchligi, dahlsizligi, salomatligi, mulkiy dahlsizligi, turar-joy dahlsizligi, shaxsiy hayot dahlsizligi kabi har qanday noqonuniy tajovuzkor harakatlardan muhofaza qilish, yoshlarda deviasiyasini boshlang'ich nuqtasida aniqlash, ularni oilaviy hayot asoslarini o'rgatish, milliy qadriyatlarimizga hurmat hissini shakllantirish yo'nalishida joylardagi mutasaddi amaliyoti, tezkor va profilaktika inspektorlarining "fuqarobay", ya'ni yakka tartibda ish faoliyatlarini tashkil qilishni yo'lga qo'yilganligi huquqiy davlatning yana bir unsurlaridan hisoblanadi.

Ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlarini tamoyilining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tadqiq etish orqali quyidagi fikr-mulohazalarni ta'kidlashimiz mumkin:

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishi davomli stratifikasiyalashuvi, yangi ijtimoiy guruhlarining shakllanishi kuzatilsa, o'z navbatida davlatda esa professionalashuvi jarayoni sodir bo'lmoqda, bu ichki ishlar vakillari orqali davlat fuqarolik xizmatining insonlar o'rtasidagi bog'lovchi sherik, huquqiy-demokratik tamoyillar asosida jamoatchilik tartibotini saqlash, jinoyatchilikni oldini olish, profilaktikasi orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy faoliyatining samaradorligi ularning xizmat vazifalarini to'laqonli bajarishi bilan bog'liqdir. Uzoq davrdan beri fuqarolar tasavvurida ichki ishlar idoralari xodimlarini faqatgina davlat hokimiyati vakillari manfaatlarini himoya qiluvchi, oddiy aholini "qo'rquvda" ushlab turuvchi, jazolash vositasi sifatida ko'rishgan. Ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyatini tubdan o'zgartirish, aholi tafakkurida ijobiy-pozitiv tasavvurlarni mustahkamlash maqsadida milliy

taraqqiyotimizning yangi bosqichida maxsus Kodeks, qonun va farmonlar qabul qilinishi va faoliyatlarining asosiy tamoyillari sifatida inson manfaatlariga xizmat qilishni ilgari surilmoqda.

Ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy etikasi va madaniyatini oshirishni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish orqali "bilim-tafakkur-amaliyot" mexanizmi orqali oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishish mumkin, yakunida esa jamiyatda huquq ustuvorligini ta'minlashga erishiladi. Tadqiqotimizda fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning Liberal-demokratik asoslari va ijtimoiy davlat tushunchasini "xalqparvar" mexanizmini qaror toptirish orqali fuqarolarning huquq, erkinliklari kafolati sifatida ko'rishimiz mumkin. Mazkur o'zgarishlar ichki ishlar idoralari xodimlarining yangi ijtimoiy maqomini ham o'zgarishiga olib keldi, shuningdek kasbiy madaniyatlarida ham ijtimoiylashuvni kuzatish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida jamiyatimizdagi ijtimoiylashuv jarayonining mazmun-mohiyati, tarkibiy elementlari va amalga oshirish mexanizmlarini tahlil natijasida ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy madaniyatini ijtimoiy o'zgarish dinamikasi kuzatilgan. Ijtimoiy davlatni to'laqonli tarkib topishi avvalambor uning ijtimoiy islohotlari jarayonida "xalqparvar" tuzilma asoslari bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanishini talab etuvchi muhim shartlardan hisoblanadi. Jamiyatimizda aholi huquqiy madaniyatini uzluksiz oshirib borish strategiyasi ularning o'z huquq va erkinliklarini ta'minlovchi omil bo'lib, aks holda jamiyatdan begonalashuv holati yuzaga kelishi mumkin, unda fuqaro tomonidan norozilik kayfiyati kuchayishiga olib kelishi mumkin, bu esa ichki ishlar xodimlarining mazkur ziddiyatlarni bartaraf etishda faollik, kompetentlikni talab qiladi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, ichki ishlar idoralari xodimlari jamiyatimizning barcha sohalarida huquq-tartibotni amalga oshirishlaridan tashqari jamiyatning turli ijtimoiy masalalarni ham bajarishga jalb qilishlari orqali nafaqat shaxsiy, balki jamoa manfaatlari bilan mos kelishi talab etiladi.

Soha xodimlarining kasbiy-professional madaniyati indikatorlari muayyan harakatlar bilan izohlanib, huquqni himoya qiluvchi organlari tizimidagi xizmat vazifalarini shakllanishi va rivojlanishining umumiy qoidalarini belgilab beradi. Bunda, davlat fuqarolik xizmati vakillarining o'z faoliyatlaridagi erkinligi, obyektivligi, adolatparvarligi, shaffofligi kabi umume'tirof etilgan qadriyatlarga tayanishlari jamiyatimizdagi huquq tartibotni ta'minlashda talab etuvchi majburiy ko'rsatkichlardir. Fikrimizni davom ettirib, davlat xizmatchilari qatori ichki ishlar idoralari xodimlarining ijtimoiy sheriklikni ta'minlashda ular tenglik, erkinlik, obyektiv betaraflik kabi tamoyillarni qaror toptirish orqali biz o'ylagan "xalqparvar" tizimga olib boramiz. Aholi huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining samaradorligi bevosita ichki ishlar idoralari samaradorligiga ta'sir o'tkazadi. Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, davlat fuqarolik xizmatchisi sifatida ichki ishlar idoralari xodimlarining mavqei yuqori kasbiy madaniyatga ega bo'lishlarini talab qiladi. Global o'zgarishlar davrida kiberjinoyatchilik sababli yuzaga kelayotgan xatti-harakatlar o'z navbatida soha vakillarida ham innovatsion bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini talab etmoqda, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini modernizatsiyalashni talab qilmoqda. Modernizatsiyalash sharoitida jamiyatimiz xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida ham ichki ishlar shaxsiy tarkibida zamonaviy bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishi kasbiy madaniyatlarida o'z aksini topishini talab qiladi. Davlatimiz transformatsiyasida yuqoridagi sohaga doir muammolar yechimi sifatida ichki ishlar idoralari xodimlarining zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishning yuqori darajasiga javob bera oladigan kasbiy madaniyatini oshirish masalasi ustuvorligi bilan izohlanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida zamonaviy "xalqparvar" ichki ishlar idoralari xodimlarning kasbiy madaniyatini adaptatsiya qilish jarayonida asosiy jihatlari erkin fikrlash, kompetentlik, mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiylashuvda ko'rinadi. Shu o'rinda dunyodagi g'oyaviy qarama-qarshiliklarga mafkuraviy immunitetni shakllantirish ham davrning o'zi taqazo qilmoqda. Shu sababdan real vaziyat, obyektivlik va subyektivlik qarashlar, empirik xususiyatlardan axborotlashgan jamiyatda mos ravishda yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari soha vakillari tafakkurida universal bilim hamda nodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish talab etadi.

FALSAFA

Quyidagi fikr-mulohazalarni keltirishimiz mumkin:

birinchidan, soha vakillarining kasbiy madaniyatini oshirishdan kutilayotgan natijalar jamiyatdagi qarama-qarshiliklar ta'siridan holi bo'lgan holda obyektiv baholanishi kerak;

ikkinchidan, ichki ishlar idoralari xodimlarida "xalqparvar"lik ko'rsatkichlarini sotsiologik tadqiqotlardan foydalanish orqali ularda ma'naviy-ma'rifiy, kasbiy-professional ko'nikmalarini ilmiy-nazariy tahlili qilish mexanizmini ishlab chiqish, ijtimoiy indikatorni belgilaydi;

uchinchidan, ijtimoiy davlatni qaror topishi, Liberal-demokratik islohotlarni davom etishi, jamoat tashkilotlari faoliyatini yanada erkinlashtirish sharoitida ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy madaniyati ijtimoiylashuvini talab etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Унвон, орден ва медалларни ўз эгаларига топширди // Халқ сўзи. /2017/ 7 декабрь
2. "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси" (расмий нашр) - Тошкент: "Адолат", 2022. - Б. 26-30.
3. [https://nrm.uz/contentf?doc=711850_ichki_ishlar_organlari_hodimlarining_kasbiy_madaniyat_va_hizmat_intizomi_kodeksi_\(o'zr_prezidentining_20_01_2023_y_pq-10-son_qaroriga_1-ilova\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana&ysclid=lsrf9wjg7z121371054](https://nrm.uz/contentf?doc=711850_ichki_ishlar_organlari_hodimlarining_kasbiy_madaniyat_va_hizmat_intizomi_kodeksi_(o'zr_prezidentining_20_01_2023_y_pq-10-son_qaroriga_1-ilova)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana&ysclid=lsrf9wjg7z121371054)
4. https://www.researchgate.net/publication/356776309_BARQAROR_TARAQQIYOT-2030_DASTURINING_YANGI_MAQSAD_VA_TAMOYILLARI
5. <https://kknews.uz/uz/31781.html>
6. Зиёдуллаев М.З. Милиция таянч пунктларининг жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқаришни такомиллаштириш. юрид. фан. номзоди. дис. - Тошкент: 2008. - Б. 114.
7. Дўстмуродов У.И. Ички ишлар органлари ходимлари томонидан қўлланиладиган жисмоний куч ишлатиш чораси маъмурий чеклаш чоралари тизимида: ҳуқуқий табиати, процессуал жиҳатлари // ИИБ Академиясининг ахборотномаси. 2021. № 4 (51). - Б. 70.
8. Исмаилов И. Ички ишлар органлари бошқарув тизимида янги тартиб ва механизмлар // ИИБ Академиясининг ахборотномаси. 2021. № 3 (50) - Б. 38-44.
9. Зарипов З.С. Профилактическая функция следственных подразделений органов внутренних дел. - Тошкент: 1980. - С. 57.
10. Расулев У.Э., Баратов К.К. Жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш ички ишлар органлари фаолиятининг муҳим вазифаси: хориж тажрибаси ҳамда ҳамкорлик // ИИБ Академиясининг ахборотномаси. 2021. № 1 (48). - Б. 150-156.
11. Одиқориев Х.Т, Ғойибназаров Ш. Сиёсий маданият. – Тошкент: 2004.